

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan "Til- millat qalbining mangu jarangi" nomli madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi

Joriy o'quv yilining 21-oktabr kuni Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining **36 yilligi** munosabati bilan **"Til- millat qalbining mangu jarangi"** nomli madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda akademik litsey mas'ullari, hamda o'quvchilar ishtirok etishib, ona tilimiz qadrigimmati, uning milliyligi hamda davlatchiligimizda tutgan o'rni haqida so'z yuritishdi.

O'quvchilar ona tilimizga bag'ishlangan ijod na'munalari bilan yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashish bilan bir qatorda ona tilimizni o'zida mujassam ettirgan turli she'r, raqs hamda sahna ko'rinishlari bilan tadbir qatnashchilarining olqishlariga sazavor bo'lishdi. Tadbir so'ngida tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilarga faxriy yorliqlar topshirildi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati